

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI MAZMUN-MOHİYATI VA INSON HUQUQLARINING TURLARI

Aripova Ma'mura Shuhrat qizi,

Samarqand davlat Universiteti, Kattaqo'rg'on filiali, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi

Isaqlulova Durdona Jahongir qizi,

Samarqand davlat Universiteti, Kattaqo'rg'on filiali, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi

Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi yanada globallashayotgan dunyoda, qadim zamonlardan beri insoniyatni tashvishga solib kelayotgan inson huquqlari masalasi ahamiyatli va dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi", deklaratsiyada keltirilgan "Inson huquqlarining turlari" mavzusi yoritilar ekan, unda inson huquqlariga ta'rif, insonning qanday huquq turlari bayon qilingani haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi", shaxsiy huquqlar, siyosiy huquqlar, ijtimoiyi-qtisodiy huquqlar va madaniy huquqlar.

Аннотация: В современном более глобализированном мире проблема прав человека, которая с незапамятных времен волновала человечество, является одной из важнейших и актуальных проблем. В этой статье освещается тема "Всеобщая декларация прав человека", "виды прав человека", представленные в декларации, дается определение прав человека, дается информация о том, какие виды прав человека изложены.

Ключевые слова: права человека, "Всеобщая декларация прав

человека”, права личности, политические права, социально-культурные права и культурные права.

Annotation: *In the now more globalized world, the issue of human rights, which has worried humanity since ancient times, has been one of the most significant and pressing problems. This article covers the theme of the “Universal Declaration of human rights”, the “types of human rights” presented in the declaration, which provides for a definition of human rights, what types of human rights are described.*

Keywords: *Human Rights, “Universal Declaration of human rights”, personal rights, political rights, social-economic rights and cultural rights.*

Inson huquqlari bu - irqi, dini, milliy-ijtimoiy kelib chiqish, qayerda tug'ilishi va boshqa har qanday holatidan qat'i nazar, barcha insonlarga xos bo'lgan huquqlardir. Ularning me'yorlari odamlarni qadr-qimmat, erkinlik, tenglik, adolat va tinchlik bilan yashashga imkon beradi.

Inson huquqlari - yashash joyimiz, tashqi ko'rinishimiz, fikrimiz yoki ishonganimizdan qat'i nazar, har bir insonning ajralmas qiymatini tan oladi. Ular qadr-qimmat, tenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan bo'lib, madaniyatlar, dinlar va falsafalar bo'ylab taqsimlanadi. Ushbu huquqlar barcha shaxslar bilan odilona muomala qilish va kundalik hayotimizda chinakam tanlov qilish qobiliyatiga ega bo'lishdir.

Umuman olganda, inson huquqlari:

- 1) tabiiy huquqlar - insonga tug'ilishi bilanoq tegishli bo'ladi;
- 2) ajralmas huquq - ulardan hech kim o'zboshimchalik bilan va asossiz ravishda mahrum qilinmaydi;
- 3) shaxs huquqi - ular individuallashtirilgan bo'lib, insonning qadr-qimmatini va sha'nini himoyalashga qaratilgan.

Inson huquqlari shaxsning hayotini, sha'ni va qadr-qimmatini hamda jamiyat hayotining barcha jabhalarida faoliyat erkinligini ta'minlovchi tabiiy

imkoniyatlardir. Inson huquqlari bu munosib darajadagi xulq-atvorning inson manfaatlarini qondirishga qaratilgan va qonun bilan muhofaza qilinadigan mezon hisoblanadi.

Bugungi kunda, har qanday demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri – inson huquq, erkinliklari va manfaatlari qay darajada yondashganligida hamda uning amalga oshishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilganligidadir. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan qo'shilgan ilk xalqaro hujjatlardan biri Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidir.

Aytib o'tish kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish oson kechmadi, loyihasi deyarli ikki yil muddat muhokama qilindi. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining dastlabki shakli qabul qilinishiga qarshi davlatlarning da'volari juda o'ziga xos edi. Sobiq sotsialistik davlatlar bu Deklaratsiya insonning istagan paytda o'zi yashab turgan davlatni tark etib, muhojiratga jo'nash huquqiga ega bo'lishiga qarshi chiqqan bo'lishsa, hozir inson huquqlari bo'yicha namuna darajasiga erishgan Kanada irqiy tenglikka ko'nikolmay rozi bo'lmagan (ammo, oxir-oqibat qabul qilgan). Ayrim arab mamlakatlari esas shaxsning erkin tarzda din tanlashi va nikoh erkinligini qabul qila olmagan.

Shunday qilib, 1948 yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha odamlarga taalluqli bo'lgan asosiy huquq va erkinliklarni belgilab berdi. Ikkinchi Jahon Urushidan keyin tuzilgan ushbu hujjat inson huquqlari bo'yicha ko'plab qonunga muvofiq tuzilgan xalqaro qonunlarni ilhomlantirgan asos hujjatiga aylandi.

O'sha davrda BMT a'zolari bo'lgan 58 davlatdan 48tasi bu hujjatni yoqlab ovoz berishdi. Ta'kidlash joizki, bunga qadar ham inson huquqlarini aks ettiruvchi hujjatlar, qonunlar, paktlar turli davlatlar doirasida bo'lgan. Ammo mazkur deklaratsiyaning o'ziga xos jihati uning umumjahon ahamiyatiga ega ekani, tarqoq tushunchalarni birlashtirgani, barcha uchun umumiy jihatlarni jamlay olganida edi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - hamma huquqlarga ega bo'lgan

30 ta huquqni sanab o'tgan birinchi hujjatdir. Birlashgan Millatlar Inson huquqlari tashkiloti tomonidan qabul qilingan 7 ta asosiy barcha davlatlar amal qilishi kerak bo'lgan poydevor tamoyillar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

I. Barcha insonlar erkin va tengdirlar. Ular aql va vijdon bilan ta'minlangan va bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida harakat qilishlari kerak.

II. Kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslik. Har bir inson irqi, rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy-siyosiy kelib chiqishi, mulki, tug'ilganligi yoki boshqa holatlarda barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi shart.

III. Hayot huquqi. Har bir inson yashash, erkinlik va xavfsizlik huquqiga ega.

IV. Qullikka o'rin yo'q. Hech kim qullikda yoki xizmatkorlikda saqlanmasligi shart; qullik va qul savdosini amalga oshirish barcha shakllarda taqiqlangan.

V. Qiynoq va g'ayriinsoniy munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi yoki shafqatsiz-g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsitadigan jazolarga duchor etilishi mumkin emas.

VI. Qonundan foydalanish huquqi. Har bir inson hamma joyda qonun oldida shaxs sifatida tan olinishga haqlidir.

VII. Qonun oldida barcha tengdir. Har bir inson qonun oldida teng va hech qanday kamsitishlarsiz qonunning teng himoyasi huquqiga egadir.

Shuningdek, Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasi normalari mohiyatini talqin etib, inson huquqlari mazmunan o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi xususida xulosaga kelish mumkin:

Shaxsiy huquq va erkinliklar: Deklaratsiyada ushbu huquqlar quyidagicha o'z aksini topgan:

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar(1-modda). Har bir inson ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo'ladi(2-modda). Mazkur huquqlar mazmunan shularni nazarda tutadi: hayotga bo'lgan huquq; erkinlikka bo'lgan huquq; shaxsiy daxlsizlik huquqi; diskriminatsiyaning taqiqlanishi; qiynoqning taqiqlanishi;

shafqatsiz va sha'n, qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarining man etilishi; qullikning taqiqlanishi; majburiy mehnatning takiklanishi; qonunga xilof qamoqqa olishning man etilishi; boshpanaga bo'lgan huquq; shaxsiy hayotga bo'lgan huquq(telefon, xatxabar va so'zlashuvlarning maxfiyligi huquqi; birovlar shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni ular roziligisiz saqlash, foydalanish va tarqatishning taqiqlanishi); uyjoy daxlsizligi huquqi; sha'n va qadr-qimmatni muhofaza qilishga bo'lgan huquq; fikrlash erkinligi; vijdon va e'tikod erkinligi; axborot erkinligi(axborot olish, yaratish va tarqatish erkinligi); harakatlanish erkinligi; ko'chish erkinligi; mehnat erkinligi; mulkdor bo'lish huquqi; nikohga kirish huquqi.

Yuridik huquqlar: Deklaratsiyaga muvofiq, barcha insonlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Bu quyidagi huquqlar majmui orqali kafolatlanadi: fuqarolikka bo'lgan huquq sub'yektiligini tan olinishi huquqi; huquq va erkinliklarni sudda himoya qilishga bo'lgan huquq; odil sudlov huquqi(tez, ochik-oshkora va xolis sudga bo'lgan huquq, o'ziga va yaqinlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqi; sudda noqonuniy yo'llar bilan qo'lga kiritilgan dalillardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi; hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chikishni talab etish huquqi); malakali yuridik xizmatta bo'lgan huquq; aybsizlik pryezumptsiyasi huquqi.

Siyosiy huquqlar: Deklaratsiyada xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozimligi belgilangan bo'lib, buning yuridik asoslari quyidagi huquqlar orqali kafolatlanadi: tinch yig'ilishlar o'tkazish huquqi; birlashmalar tuzish huquqi; o'z mamlakati boshqaruvida ishtirok etish huquqi(davlat mansablariga tayinlanish huquqi); saylash va saylanish huquqi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar: Deklaratsiyaning 22-moddasiga binoan, har bir inson jamiyat a'zosi sifatida milliy kuch harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdyek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta'minotga va o'zining qadr-qimmatini saklash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi

huquqini amalga oshirishga haqli. Bu o'z navbatida quyidagi huquqlarni taqozo etadi: sog'lik va turmush tarzini olib borish uchun yetarli bo'lgan hayot darajasiga bo'lgan huquq; adolatli mehnat sharoitlariga bo'lgan huquq; dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquq; ishsizlikdan himoyalaniish huquqi; kasaba uyushmalari tuzish huquqi; sog'liqqa bo'lgan huquq(sog'likni himoya qilish va tibbiy yordam huquqi); ta'lim huquqi(umumiy o'rta ta'limni bepul olish huquqi; kasb va hunar ta'limning ta'minlanishi; tanlov asosida oliy ta'limni egallash huquqi; boshlangich ta'limning majburiyligi); ijtimoiy ta'minot huquqi(qarilik, nogironlik, kasallik, boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan ta'minlanish huquqi); ochlikdan muhofazalanishga bo'lgan huquq; jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish huquqi; mualliflik huquqining himoyalaniishiga bo'lgan huquq.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so'ng amaldagi xalqaro huquqiy asosda ishlab chiqilgan inson huquqlari va boshqa hujjatlar bo'yicha qator xalqaro shartnomalar imzolandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 80 dan ziyod xalqaro hujjatlar, BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o'zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ishtiroki va so'zlagan nutqi O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish sohasida BMT bilan xamkorligining yangi sahifasini ochdi. Yurtboshimiz o'z nutqida mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida atroflicha to'xtalib o'tdi. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan xamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilayotgani, odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalarini bekor qilinganligi, inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqot faollashib borayotgani, insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsni qamoqda saqlash bilan bog'liq ko'plab xolatlarda qayta ko'rib chiqilganligi, ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan

fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinayotganligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilinayotganligi, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti joriy etilganligi ta'kidlab o'tildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan Inson huquqini oliy qadriyat deb hisoblagan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ygan bizning mamlakatimiz uchun Konstitutsiyamizda Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi g'oyalarining singdirilishi muhim ahamiyatga ega

FOYDALANILGAAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro Amnistiya (2004). Xalqaro Amnistiya hisoboti. Xalqaro Amnistiya. ISBN 0-86210-354-1 ISBN 1-887204-40-7.
2. O'zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Inson huquqlari haqida hisobot 2020 – O'zbekiston. Uz.usembassy .gov
4. Инсон ҳуқуқлари: Парламент аъзолари учун қўлланма. - Тошкент: Baktria press, 2019.
5. Новый Узбекистан и права человека. Информация о состоянии соблюдения международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека. – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2020.
6. Всеобщая декларация прав человека: 1948-1998. - М., 1998
7. Islomov Z.M. Inson huquqlari va hozirgi zamon yurisprudentsiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2008